

SHUKUR XOLMIRZAYEV HIKOYALARIDA BADIY DETALLAR

Alimova Mohidil

+Surxondaryo viloyati Termiz tuman 1-umumta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

99894-462-95-87 alimova.mohidil2@mail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.16692530>

Annotatsiya. Ushbu maqolada adib Shukur Xolmirzayev hikoyalari kompozitsiyasida badiiy detallar, jumladan uning peyzaj, narsa-predmet, interyer kabi turlaridan keng foydalanish asar tuzilishining o'ziga xosligini ta'minlagani ilmiy tahlil etiladi. Yozuvchi ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda qahramon holati uning ichki ruhiy dunyosi, tasvirning aniq va ishonchliligi, muallifning badiiy maqsadini yuzaga chiqarishda badiiy detallar muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: kompozitsiya, badiiy detal, obraz, tabiat, peyzaj detal, predmet detal, ekspozitsiya, interyer detal, badiiy konstepstiya.

Аннотация. В данной статье будет проведен научный анализ рассказов Адиба Шукура Холмирзаева, в которых широко использованы художественные детали, в том числе такие его виды, как пейзаж, вещь-предмет, интерьер, и т.д., которые обеспечили оригинальность структуры произведения. В выводе на поверхность объективности образа, творческим кредо которого является писатель, состояние героя, его внутренний духовный мир, ясность и достоверность образа, художественная детальность работы приобретают важное значение при выводе на поверхность художественного замысла детали становятся важными.

Ключевые слова: композиция, художественная деталь, образ, природа, пейзаж, предметная деталь, экспозиция, интерьер, художественная концепция

Abstract. In this article, the writer Thanks the Xolmirzaev kompozitsiya story of artistic details, including its landscape, things-objects, interiors, such as the widely used cultivars havei made that provide specific and the gameis scientific analysis. The writer is the occurrence of internal mental image out of his hero status kredosi creative ob'ektivligi the world, and the reliability of the image is clear, the author details in the likelihood of out your artistic artistic goals] which plays an important role.

Keywords: kompozitsiya, artistic details, images, nature, landscape details, item details, exposition, interior details, artistic konstepstiya.

Yozuvchilarning asosiy qismi asar yozib bo'lishgandan so'ng, uning sarlavhasi, unga beriladigan nom ustida, asarga ajratilgan vaqtdan ko'ra bo'lsa, asar nomi kiyimni kiyib namoyish qiladigan madel qiz deyishimiz mumkin. Bu xuddi aksioma qonuni singari, biri birisini taqazo etadi. Inson umri doimo yashillikni mangu maskanini qumsab yashaydi. Qalb illatlardan, yovuzlikdan to'xtamas ekan, umr xazonrezgilik balosiga muhtalo bo'ladi. Ko'klam ro'yxushlik bermaydi. Manguga makonsiz, shamollarda sargardon hislar singari o'zligi izldizlari qariga g'oyib bo'ladi.

Shukur Xolmirzayevning "Bahor o'tdi" hikoyasi. Bu asar insonni chuqur o'yga toldiradi.

Shukr qilishga, mulohazakorlik bilan fikr yuritishga majbur qiladi. Qishloqning tanti, otasi vafot etgani uchunmi, yolg'iz onasi bilan qolgan qiz qishloq qayerida yig'ayotganini ko'rishsa unga achinishar, doimo muloyimlik bilan muomala qilar edi. Bazi insonlar ularga hayotda kimdir achinib qaraganligidan ichki hotirjamlik his etadi. \

Himoyaga muhtoj singari himoya qilishlarini, hammaning e'tibori unda bo'lishini istaydi.

Aynan himoyaga muhtojlik, hammaning e'tiborini o'ziga jalb etilishini istash xarakter detalining namunasidir. Mastura huddi shunday insonlar toifasiga kirardi. Uning tolesida baxtiqarolik sezimlari sezilmasada, unga butun qishloq ahli mehribonlik qilar, hatto muallimlari ham maktabda baho qo'yish masalasida unga rahmdillik qilar, u bazida qishloq o'rtasida baqirib yig'lar va buning sababini hech kim so'ramas, chunki bu sabab hammaga ayon edi. Uning otasi do'konda ishlagan, yigirma sotix bog'i bor, bog'da bog'dorchilik qilar va pensiya pulidan kun kechirishar edi. Bir kuni magazinda ishlash chog'ida tap etib yiqiladi-yu, qaytib turmaydi. Badiiy asarda detalga bog'liq ko'p elementlarni uchratish mumkin. Qay yo'sinda bo'lmasin yozuvchi kitobxonga nima deyayotganini anglatmog'i lozim. Bu asarda ham Mastura bosh obraz bo'lib kelmoqda. Masturaga yozuvchi shunday harakter detalini beradi: U ko'p narsani o'ylab fikr qilib o'tirmas edi. Asar qahramonining asar boshlanishidan to tugaguniga qadar taqdiridagi voqealariga nazar soladigan bo'lsak uning dilida o'zi aytganidek "pushmon" bo'lishga loyiq voqea bo'lmagandek. Uning qalbida sokin tuyg'ular, tiriklikning o'tkinchiligi to'g'risida falsafiy mushohadalar mehmon ham emas. Hikoyada qandaydir ma'yuslik, Pushkin iborasi bilan aytganda "yorug' ma'yuslik" bor. Asardagi "yorug' ma'yuslik" Mastura qalbiga yaqin bo'lgan.

U hali hayotning qaqshatqich zarbalariga yomonlik, adolatsizlikka, xiyonat va sotqinlikka, hasad va tuhmatga, nafratga duch kelmagan edi. Xayollari "shirin" edi. U hali "hovliqib oqquvchi hayot soyida chavandoz umrining qaytmas sehri"ni ko'rish darajasidagi aql- zakovatag ega emas edi. Inson hayotining har bir lahzalariga shukronalik keltirmas ekan, u turli xil hayot sinovlariga duchor bo'laveradi. Payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallam shukr haqida shunday deganlar: ***"Kim oziga shukr qilmasa, ko'piga ham shukr qilmaydi. Kim insonlarga tashakkur aytmasa, ulardan minnatdor bo'lmasa, Alloh taologa ham shukr qilmaydi. Ne'matlar haqida gapirish – shukrdir. Uni gapirmaslik esa –noshukurlikdir. Jamoat bilan yurish – rahmatdir. Yolg'izlik esa – azobdir"***,– dedilar (Imom Buxoriy va Imom Muslim rivoyatlari). Robbimizning bizga bergan vadalar doimo yodimizda turishi lozim. Shukr qiling, shukr qilganingizdan ziyodasini beraman. Asarni o'qish davomida Masturaning hayotidagi barcha voqealarni sinchiklab o'qib chiqar ekanman, aynan Masturada noshukurlik alomatlarini sezdim. Shukur Xolmirzayev ushbu hikoyasida Masturaning onasi haqida portret detalidan foydalanadi:ko'zi shilpiq deya ta'riflaydi. Shilpiq so'zining etimologiyasiga nazar soladigan bo'lsak, ko'z atrofi doimo yoshlanib yuradigan yuqumli kasallik . Shilpiq so'zning asarda ikki bora takrorlanishining berilishi hodisalari: Masturaning o'qishdan qaytib kelish voqeasida va Akobirga turmushga chiqqandan keying voqealar bayonida. Har ikkala holatda ham voqea noxush yakun topadi. Mastura o'qishdan qaytib kelgandan so'ng ham odamlar tomonidan yana rahm-shavqat tuyg'ulari bilan kutib olinaman deb o'ylaydi, afsuski, qshloqdagilar uning xatti – harakatlarini erkalik emas, balki u joyda bo'lgan biror noqulay vaziyat sifatida qabul qilib unga tuhmat toshlarini otishadi, tushkinlikka tushib qoladi. Ikkinchi voqea u Akobirga turmushga chiqish hodisasi. Hayot o'zi yolg'ondan boshlandimi uning nihoyasi yaxshilik bilan tugamaydi.

Qarshiga o'qishga kirgan Masturani u yerdagilar qishlog'idagi kabi mehribonlik bilan "siylamaydi", qishloqdagilar u yig'lasa qo'shilib ovutishar, muallimlari ham baho qo'iyshda sahiylik qilishar edi. Bu yerdagilar ularning tamoman aksi ularning Mastura bilan umuman ishi yo'q, hatto kursdosh qizlari ham uning erkaliklaridan charchab deyarli gaplashmay qo'ygan, u qishlog'idagilarni unga g'amxo'rlik qiluvchiarni har daqiqa so'ginib yashardi. Bir kuni paymonasi to'ldi-yu, o'z qishlog'iga qarab ravona bo'ldi. Uni u kutgandek kutib olishmadi Alpomish dostonida aytilganidek: "otini ushlashmadi, ko'nglini xushlashmadi".

Turli ta'na malomatlarga qolib ketgan qizning yagona suyanuvchisi maktabda o'qib yurganida ko'ngil qo'ygan, Qarshida o'qib yurgan kezlari stipendiyasidan pul ortirib uni ko'rgani borgan, ota-onasi erta vafot etgani uchun mehribonlik uyida tarbiyalangan, ozg'ingina, qirraburun, Toshkent davlat universitetining geologiya fakulteti talabasi Akobir edi.

Yozuvchi Akobirning mehribonlik uyida tarbiyalanganligini bir necha bor takrorlaydi.

Bu holat detalidir. Hayotida mehr topmagan mehribonlik uyida tarbiyalangan bola injiq, o'zidan o'zgani bilmaydigan xotiniga uylangandan so'ng ham mehr chashmasi bulog'idan suv icha olmadi. U doim xotinini ko'nglini topishga harakat qiladi. Lekin mehrga zor insonni o'ziga ham mehr kerak edi. Daryoga chanqab borib chanqab suv icha olmay qaygan inson misoli Akobir hayotida ham turli ko'ngilsiz voqealar yuzaga chiqaveradi. O'qiganingiz sari o'zingizga oyna tutasiz. Oila va ro'zg'or masalasida hamfikir va hamdard bo'lib, yelkadosh bo'lish kerakligiga yana bir bora amin bo'lasiz. Mastura o'qishni tashlab kelgandan so'ng Akobirga xat yozib uni turmushga bermoqchi ekanliklarini yozadi. Bu xabarni eshitgan Akobir barcha tanishlaridan pul yig'ib kichkinagina to'y o'tkazadi. Institutni a'lo baholarga tugatgan Akobir Masturaning rayiga qarshi chiqa olmay qishlog'iga yaqin joydan ish oladi. Ishlari yurishib ketib ozgina pul jamg'aradi va uy qurishadi. Mastura bu orada homilador bo'lib ijiqlari orta boshlaydi.

Uy bitgandan so'ng tandir qo'yish bahonasida tuproq olishga ketadi-yu, tuproq bosiq vafot etadi. Mastura erini ham o'lgan otasi singari eslay boshlaydi. Hayotda tajribasi oshgan ayol: Odamlarga ham hayronman yana bir erga tegay kim yaxshi Masuraxon yaxshi deb o'lay boshlaydi. Men bu asarni turmush qurish arafasidagi yoshlarga tavsiya qilib qolga bo'lar edim.

Asar mohiyatan insonni o'ylashga men ham insonlarga nisbatan xudbinlik qilmayapmanmi? deb fikr yuritishga, eng asosiysi turmush o'rtog'i va atrofdagilariga nisbatan mulohazakor bo'lishga majbur qiladi.

Shukur Xolmirzayevning hikoyalari oddiy va samimiy tuyg'ularning ulug'vor ko'rinishlaridir. Shukur Xolmirzayevning aksar qahramonlari oddiy hayot tarzida kun o'tkazayotgan, bir nazar bilan qarashda, Vatanga, millatga, umuminsoniyatga daxli bo'lmagan xokisor odamlardir. Ammo yozuvchining nigohi shu darajada o'tkirki, u ana shu daxlsizlik ortida yotgan millatga, Vatanga, bani basharga daxldor dardlarni ko'ra biladi, tasvirlay oladi, ko'rsatib bera oladi. Makon va zamon qanchalik jimjimalarga va bezaklarga o'ramasin, uni qanchalik rag'batlantirilmasin, «rabotlashtirmasin», Shukur Xolmirzayev nazari uni – do'zaxiy jim-jimalar, ohanjamalar ichidagi insonni, uning dardini ko'ra oladi, bu dardni Abdulla Qahhor uslubidan farqli ravishda ko'rsatib bera oladi.

Shukur Xolmirzayevning "Farzand" hikoyasiga to'xtaladigan bo'lsak, asar nomining o'ziyoq hikoya maqsadini ochib beruvchi detaldir, bu asar fikrimiz boshida ta'kidlab o'tganimizdek, oila va uning mustahkam qiluvchi sevgi deb atalmish buyuk tuyg'u haqida. Sevgiga insoniyat doim muhtoj bo'ladi, sevlash ham sevilish ham bir ne'mat. U tuyg'uga ega bo'lgan inson hech qachon qarimaydi. Kiprik fiziologik jarayon natijasida to'kilishi, soch ham oqarishi, yonoqlardan bizda doim hamroh bo'lgan nur ketib, ajinlar bizga do'st bo'lib, tushishi mumkin, ammo sevgan qalb hech qaysi lahzada qishning ayozli va qahraton kunlarini qalban his qilmaydi. Unda hamon yozning tafti, issiq nafasi ufurib turgan bo'ladi.

Dunyodagi hijron, visol haqida ash'or bitmagan yozuvchi, shoirlar bo'lmasa kerak. Bu tuyg'u inson yaralibdiki, uning qalbiga jo qilingan. Inson hayoti davomida nimaga erishmagan bo'lsa o'sha narsa unga totli va lazzatliroq ko'rinadi, u haqida eslaganda yuragida uyg'ongan tuyg'ularga nom qo'ya olmay qoladi. Boshqarishning iloji yo'qdek tuyiladi. Oila bizni qishda isitadigan, yozda sovutadigan, biz uchun boshimiz toshga tekkanda yagona bosh urib boradigan

maskanimiz bo'lishi lozim. Biz oilamizgagina kerakligimizni his qilamiz, uning bag'ridagina o'zimiz hotirjam bo'la olamiz. Oila qurgandan so'ng turmushda muhabbat mavjud bo'lishi va o'sha muhabbatni mustahkam qiluvchi farzandlar bizning kelajakdagi izimiz bo'lmog'i lozim. Mengboy Soraga uylangani uchun butun uyidagilar akasi, opasi bilan munosabatlari iplari uzilgan, shu sabali qishloqqa kelganida yaqinlarining gaplaridan qochib do'sti G'afforning uyiga kelib ba'zan qarindoshlarining uyiga ham kirmasdan o'sha yerdan qaytib ketardi. U muzey direktorining o'ribbosari bo'ganidan beri o'g'li bilan munosabatlari yaxshilangan, uni bog'chadan olib qaytishmi olib kelishmi barcha ishlari yengillashgan, o'g'li onasidan ko'ra otasiga mehr qo'ygan edi. Barcha oilalarda bo'lgani kabi ularning oilasida ham nimadir, hali o'zi angalb yetmagan nimadir mavjud edi. O'sha bo'shliqni vujudga kelishida har ikkala tomonning ham o'z aybi bor, albatta. Xotin zamona zayli bilan o'zining tashvishlari bilan, er esa o'z tashvishlari bilan ovvora. Badiiy detalda voqea yanada aniqroq tasavvur uyg'otishi uchun biror so'zdan unumli foydalanishi kerak bo'ladi. Aynan Mengboyning muzey direktori o'rinbosari bo'lishi ham bekorga badiiy detal sifatida kiritilmay qolmagan. Muzeydagi barcha chiroyli eksponatlar faqat ko'rgazma uchun qo'yiladi, uni uyga olib ketish va yoki boshqa maqsadlarda foydalanish ta'qiqlandi. Hayotimiz kirib kelgan ba'zi insonlarni ham shunday tasavvur qilishimiz, agar e'tiqodimiz maslasida qaraydigan bo'sak hayotimiz tizgini qo'limizdan chiqib ketishi hech gap emas. Xiyonat kechirilmaydigan masala, ammo bu harakatni sodir etagan shaxs o'z aybini vaqtida angalb yetsa, o'sha hodisani vaqtida to'xtata bilsa, menimcha, voqealar rivojida ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshlaydi. Mengboyning asli qalbi xiyonatga moyil emas edi. U o'zi bir paytlar tushlarida orzu qilgan insonni ko'rgandek, qalbi junbushga kelganini sezadi. Oralaridagi muhabbati hoy-u havasmi, balki muhabbat deb atalmish tuyg'uning alangasimi u angalb yetmadi. U o'g'li Islomjonni bag'oyat yaxshi ko'rar, yaxshi ko'radi so'zining o'zi ham bu munosabatni ta'riflashga ojizlik qilar edi. U xotini sevganidan ham emas ko'proq farzandidan ajralib qolish vajidan Hanifa bilan munosabatlarini uzishga qaror qiladi. Yozuvchi Mengboyning Hanifa bilan baxtli qilib yozishi, uni oilasidan ajratib Hanifa bilan turmush qurdirib ko'pdan ko'p farzandalarning ota-onasi bo'ldi deb tasavvur uyg'otishi mumkin edi. Ammo hayot chiziqlari mukammal bo'lishi o'zimizga bog'liq ekanligini yana bir bor eslatib qo'yadi. Shukur Xolmirzayev ijodida, jumladan, hikoyalari kompozitsiyasida badiiy detallar, tahlillar jarayonida ko'rib o'tganimizdek, yozuvchi ijodiy kredosi hisoblangan tasvir ob'ektivligini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman, adib o'zbek hikoyachilik san'atini yangi, yuqori bosqichga ko'targan yozuvchilardan biridir. Yangi betakror obrazlar yaratishga intilish, asarning kompozitsion qurilishida bir-birini takrorlamaydigan yangiliklar topish, asar mazmuniga mos detallarni o'rinli qo'llay olish, ularga milliy ruhni singdirish yozuvchi ijodiy uslubining o'ziga xos jihatlarini namoyon ettiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qur'onov D. "Adabiyotshunoslikka kirish". – Toshkent: Meros, 2004. – B 76-77.
2. Solijonov Y. "Detallar tilga kirganda" – "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2007-yil, No5.
3. Xolmirzayev Sh. Saylanma: III. – Toshkent: "Sharq", 2005. – B.116.
4. Xolmirzayev SH. Tanlangan asarlar: Hikoyalar. II J-T: "Sharq", 2020. – B.21